O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
NAMANGAN VILOYATI
BOSHQARMASI

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko‘chasi, 105-uy, Tel/Faks: 71-203-11-38, E-mail: namexpert@umail.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich
Sana: 28-12-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

228094 - SONLI

Obyekt nomi: Namangan viloyati Namangan shahar Davlatobod tumani Yelxon MFY Islom Karimov ko‘chasi 185-uy hududida “SAMO BUILD-14” MCHJ tomonidan Shaharsozlik norma va qoidalari asosida, loyihadan chetlashmaslik sharti bilan o‘z qizil chizig‘i hududida savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shaxobchalarini o‘z ichiga olgan ko‘p qavatli turar-joylar kompleksi bino-inshootlarini qurilish (1-bosqich)	
Buyurtmachi:	SAMO BUILD-14 MCHJ
Bosh loyihachi:	"NEST ONE LOYIHA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Loyiha topshirig‘iga asosan
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	047072

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Namangan viloyati Arxitektura shaharsozlik kengashi yig‘ilishining 29.11.2024 yildagi 47-sonli bayoni.

1.2. Namangan shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limining 16.12.2024 yildagi 164350487-sonli ruxsatnoma.

1.4. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyiha topshirig‘i.

1.5. Namangan viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 17.12.2024 yildagi 1714-1714401-209790-sonli arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.6. Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishning texnik shartlari.

1.7. “O’ZGASHKLITI” Namangan viloyat filiali tomonidan 2024 yilda bajarilgan muhandis-geologik tadqiqotlar natijalari bo‘yicha texnik hisobotlari.

1.8. Ob’ekt loyihasining energiya samaradorligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha xulosa.

1.9. Loyiha va tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 16.12.2024 yildagi 12/1-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Bosh loyihachi va yordamchi loyihachi “ULTRA GROUP” MCHJ tomonidan ishlab chiqilgan “Ishchi loyiha”ning ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.
- Savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shaxobchalari o‘z ichiga olgan ko‘p qavatli turar-joylar binolari (B-tip, F-tip, H-tip). Arxitektura va qurilish qismi hamda ichki muhandislik tarmoqlari.
- Bosh reja.
- Qurilishni tashkil etish loyihasi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish uchastkasi tavsifi.

Ko‘p qavatli turar-joylar kompleksi Namangan shahar Davlatobod tumani Yelxon MFYda joylashgan bo‘lib, tanlangan joy IV-iqlimiy sharoitga to‘g‘ri keladi. Tashqi havo harorati – 14^{o}s. Me’yoriy qor yuklamasi – 0,50 kPa va shamol yuklamasi – 0,38 kPa. Zilzilaga bardoshliligi bo‘yicha – 8 ball. Yerni tuzilish relefi – tekis.

3.2. Bosh reja.

“SAMO BUILD-14” MCHJ ning umumiy hudud – 180000 m^2, shundan 84300 m^2 turar-joy bino-inshootlari uchun hamda 95700 m^2 umumfoydalanishdagi ko‘kalamzorlashtirish, yo‘l va piyodalar yo‘laklari, bolalar maydonchalari hamda avtoturargoh uchun belgilangan.

1-bosqichda quyidagi bino-inshootlar ko‘zda tutilgan: “B” tipdagi turar-joy binosi – 14 dona, “F” tipdagi turar-joy binosi – 4 dona, “H” tipdagi turar-joy binosi – 6 dona, chiqindi qutisi – 5 dona, o‘rindiqlar – 41 dona, yong‘ingi oldini olish qutisi – 66 dona, bolalar o‘yingohi – 12 dona, ayvon (besedka) – 12 dona, velosipedlar turargohi – 19 dona, avtoturargoh. Hudud obodonlashtiriladi va ko‘kalamzorlashtiriladi.

3.3. Loyihaning asosiy yechimlari.

1. “B” tipdagi turar-joy binosi (14 dona) – “NEST ONE LOYIHA” MCHJ.

Bino – 9 qavatli, texnik qavatli, yerto‘lali, karkasli, diafragma asosli, tashqi devorlari pishiq g‘ishtdan, murakkab shaklni tashkil etib, yerto‘la va 1÷3-qavatlarda – “A-Ye” va “1-6” o‘qlar bo‘yicha 19,6mx24,6m o‘lchamda, 4÷9- qavatlarda – “A-D” va “1-6” o‘qlar bo‘yicha 16,8mx24,6m o‘lchamda, yerto‘la xonalar balandligi – 3,6m, 1-qavat xonalar balandligi – 4,0m, 2÷9-qavatlar xona balandligi – 3,0 m, texnik qavat xonalar balandligi – 2,5m.

Konstruktiv yechimi.

Poydevor – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V20.

Yerto‘la devori – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V15.

Diafragma – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.

Devorlar – pishiq g‘ishtdan, 250mm qalinlikda.

Pardadevor – pishiq g‘ishtdan.

O‘zaklar – metall burchaklardan.

Ramalar – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.

Zinapoyalar – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V22,5.

Ora va tomyopma – UTR 46.1-95 v7 seriyali yig‘ma temir-beton plita va yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V20.

Tom – yumshoq o‘ramali tom to‘shamasi.

Derazalar – PVX profil.

Eshiklar – alyumin profil, MDF va metalldan.

Pol – keramik, laminat, keramogranit, beton.

2. “F” tipdagi turar-joy binosi (4 dona) – “NEST ONE LOYIHA” MCHJ.

Bino – 9 qavatli, texnik qavatli, yerto‘lali, karkasli, diafragma asosli, tashqi devorlari pishiq g‘ishtdan, murakkab shaklni tashkil etib, yerto‘la va 1-qavatlarda – “A-Ye” va “1-6” o‘qlar bo‘yicha 19,6mx29,0m o‘lchamda, 2÷9- qavatlarda – “A-G*” va “1-6” o‘qlar bo‘yicha 15,6mx29,0m o‘lchamda, yerto‘la xonalar balandligi – 3,45m, 1-qavat xonalar balandligi – 4,0m, 2÷9-qavat xonalar balandligi – 3,0m, texnik qavat xonalar balandligi – 2,5m.

Konstruktiv yechimi.

Poydevor – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V20.

Yerto‘la devori – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V15.

Diafragma – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.

Devorlar – pishiq g‘ishtdan, 250mm qalinlikda.

Pardadevor – pishiq g‘ishtdan.

O‘zaklar – metall burchaklardan.

Ramalar – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.

Zinapoyalar – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V22,5.

Ora va tomyopma – UTR 46.1-95 v7 yig‘ma temir-beton plita va yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V20.

Tom – yumshoq o‘ramali tom to‘shamasi.

Derazalar – PVX profil.

Eshiklar – alyumin profil, MDF va metalldan.

Pol – keramik, laminat, keramogranit, beton.

3. “H” tipdagi turar-joy binosi (4 dona) – “ULTRA GROUP” MCHJ.

Bino – 9 qavatli, texnik qavatli, yerto‘lali, karkasli, diafragma asosli, tashqi devorlari pishiq g‘ishtdan, murakkablik shaklni tashkil etib, yerto‘lada – “A-Ye” va “1-7” o‘qlar bo‘yicha 26,61mx25,2m o‘lchamda, 1-3-qavatlarda – “A-D” va “1-7” o‘qlar bo‘yicha 19,6mx25,2m o‘lchamda, 4÷9-qavatlarda – “A-G” va “1-7” o‘qlar bo‘yicha 15,6mx25,2m o‘lchamda, yerto‘la xonalar balandligi – 4,15m, 1-qavat xonalar balandligi – 3,9m, 2÷9-qavat xonalar balandligi – 3,0m, texnik qavat xonalar balandligi – 2,2m.

Konstruktiv yechimi.

Poydevor – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V20.

Yerto‘la devori– yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V15.

Diafragma – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.

Devorlar – pishiq g‘ishtdan, 250 mm qalinlikda.

Pardadevor – pishiq g‘ishtdan.

O‘zaklar – metall burchaklardan.

Ramalar – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.

Zinapoyalar – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V22,5.

Ora va tomyopma – UTR 46.1-95 yig‘ma temir-beton plita va yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V20.

Tom – yumshoq o‘ramali tom to‘shamasi.

Derazalar – PVX profildan.

Eshiklar – alyumin profil, MDF va metalldan.

Pol – keramik, laminat, keramogranit, beton.

Ichki muhandislik tarmoqlari.

Isitish va shamollatish.

Issiqlik ta’minoti manbai markazlashtirilgan isitish qozonxona hisoblanadi. Loyiha topshirig‘iga asosan tashqi isskilik tarmoqlari 2-boschqichda amalga oshirilishi ko‘za tutilgan.

Isitish tizimi uchun issiqlik tashuvchisi T1=90°, T2=70°s parametrlarga ega bo‘lgan suv bo‘lib, isitish tizimi ikki quvurli tizim etib loyihalangan. Tizimdan havoni chiqarib tashlash ta’minlangan bo‘lib, bimetall turdagi radiatorlar isitish asboblari sifatida qabul qilingan. Isitish suvo‘tkazgichlari polipropilen quvurlardan tashkil topgan. Shamollatish tabiiy va mexanik turtki bilan ta’minlash nazarda tutilgan. Binolarga havo oqimi derazalar orqali kirishi ta’minlangan.

Ichimlik va oqava suv ta’minoti.

Binolarga xo‘jalik-ichimlik, issiq suv, oqava suv hamda ichki yong‘inga qarshi suv ta’minoti tarmoqlari tizimi loyihalangan bo‘lib, tarmoqlar uchun turli xil diametrdagi polipropilen, plastmassa va po‘lat quvurlardan tashkil topgan. Issiq suv ta’minoti uchun quyosh suv isitgich qurilmalari nazarda tutilgan.

Elektr qismi.

Taqdim etilgan ishchi loyiha xujjatlarida “B”, “F” va “H” tipdagi turar-joy binolarini ichki elektr ta’minoti, ichki yoritish tizimi, AIISKUE tizimi va quyosh panellirini o‘rnatish ishlari bajarilgan. Elektr ta’minotining ishonchliligi II toifa.

“B” tip.

Hisobiy quvvat **Rh=218,90 kVt**

Hisobiy tok **Ih=377,70 A**

“F” tip.

Hisobiy quvvat **Rh=218,90 kVt**

Hisobiy tok **Ih=377,70 A**

“H” tip.

Hisobiy quvvat **Rh=202,25 kVt**

Hisobiy tok **Ih=497,40 A**

Loyihada 380/220V kuchlanish ishchi yoritish ko‘zda tutilgan. Yoritish svetodiod chiroqlari yordamida amalga oshiriladi. Guruhli yoritish tarmog‘i va quvvatli tarmoq VVGng-380V, magistral shitlarning tarmoqlari VVG-380V kabelda loyihalangan. Loyihada ShK turdagi xonadon shitchasi, ShE turdagi yoritish qavat shitlari, ShRNm, ShMP, PR11 va VRU11 turdagi quvvatli taqsimlash shitlarni o‘rnatilishi hisobga olingan. Har bir xonadonda elektr energiyasi hisblash uchun zamonaviy 1 fazali hisoblagichlar o‘rnatilishi ko‘zda tutilgan.

Kuchsiz tok.

Loyihada har bir xonadonda televizion antenna tarmog‘i, telefon apparati o‘rnatish uchun texnik imkoniyatlar ko‘zda tutilgan. Xonadonlar, savdo do‘konlari yong‘inga qarshi signalizatsiya tizimi bilan jihozlangan bo‘lib, tizimda qabul qiluvchi-nazorat asboblari, tutunli yong‘in xabarlagichlari va IPR turdagi qo‘l xabarlagichlari qabul qilingan. Do‘konlarda yong‘indan xabardor qilish tizimi uchun tovush kuchaytirgich hamda va bino ichiga o‘rnatilishi ko‘zda tutilgan ovoz chiqarish qurilmalari bilan bajarilgan. Shuningdek, binolarga kirish qismlari videokuzatuv tizimi bilan jihozlangan.

Ko‘p qavatli turar-joy kompleksning umumiy ko‘rsatkichlari:

Nomi	*Uy soni (dona)*	*Qurilish maydoni (m^2)*	*Qurilish hajmi (m^3)*	*Umumiy maydoni (m^2)*	*Xonadon umumiy soni (dona)*	*1-xonali*	*2-xonali*	*3-xonali*
“B” tip	14	7133,98	244725,46	62206,9	588	112	476	-
“F” tip	4	2414,04	81934,44	17012,92	192	64	64	64

“H” tip	6	4086,06	113836,8	27208,92	288	144	144	-
JAMI	**24**	**13634,08**	**440496,7**	**106428,74**	**1068**	**320**	**684**	**64**

Yong‘in xavfsizligi.

Loyihada binoning o‘tga chidamlilik darajasi o‘tga chidamlilik chegaralari va inshootlarning yong‘in guruhlariga javob berishini ta’minlash ko‘zda tutilgan. Yong‘inni rivojlanishini oldini olish uchun yong‘in signalizatsiya loyihalangan. Binodagi eshiklar odamlarni evakuatsiya qilish yo‘nalishida ochiladi. Loyihada yong‘inga qarshi suv ta’minoti tarmoqlari tizimi ko‘zda tutilgan.

Energiya tejamkorlik.

Energiya samaradorligini ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- yerto‘la qavat pol ostiga zichligi γ=35 kg/m^3, qalinligi 30 mm bo‘lgan “penopolistrol” bilan issiqlik himoya qatlami (issiqlik himoyasining ikkinchi darajasi);
- devorlarga zichligi γ=140 kg/m^3, qalinligi 50 mm bo‘lgan bazalt asosli mineral paxta bilan issiqlik himoya qatlami (issiqlik himoyasining ikkinchi darajasi);
- tomga zichligi γ=150 kg/m^3, qalinligi 120 mm bo‘lgan mineral paxta bilan issiqlik himoya qatlami (issiqlik himoyasining ikkinchi darajasi);
- derazalar PVX dan qo‘llanilgan;
- “B” tipidagi turar-joy binolari tomida 31 dona, “F” tipidagi turar-joy binolari tomida 36 dona, “H” tipidagi turar-joy binolari tomida 56 dona quyosh panellari o‘rnatish ko‘zda tutilgan.
- “B” tipidagi turar-joy binolari tomida 5 dona, “F” tipidagi turar-joy binolari tomida 6 dona, “H” tipidagi turar-joy binolari tomida 4 dona quyosh suv isitkich qurilmalari o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay va to‘siqsiz muhit yaratish:

- 1-qavatda 10% qiyalikdagi pandus va tutqichlar, kirish joylarida ogohlantiruvchi taktil qoplama ko‘zda tutilgan;
- yerto‘laga kirib chiqish uchun maxsus ko‘tarma qurilmasi ko‘zda tutilgan;
- bino 1-qavatida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun maxsus hojatxona (kabina), yo‘naltiruvchi va ogohlantiruvchi taktil qoplama ko‘zda tutilgan;
- hududda maxsus avtoturargoh ko‘zda tutilgan;
- hudud yo‘laklariga maxsus yo‘naltiruvchi taktil qoplama ko‘zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Loyiha topshirig‘iga asosan gaz ta’minoti va tashqi muhandislik tarmoqlari uchun alohida loyiha ishlanadi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Turar-joy massivi bosh rejasi Namangan viloyati hokimi va Davlatobod tumani hokimi tomonidan tasdiqlangan, Namangan viloyat FVB, Namangan viloyati AYHBB, Namangan viloyati Ekologiya va atrof muhit muxofaza qilish boshqarmasi, Namangan viloyati SEO va JSB, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Namangan hududiy filiali, “Hududgazta’minot” Namangan filiali, “Namangan suv ta’minoti” AJ bilan kelishilgan.
- Namangan viloyati Arxitektura va shaharsozlik kengashining 24.12.2024 yildagi 165154662-sonli xulosasi.
- Davlat ekologik ekspertizasi Markazi Namangan viloyati filialining 24.12.2024 yildagi 01-02/07-1957-sonli xulosasi.

- O‘zbekiston nogironlar jamiyati Namangan viloyati bo‘limining 23.12.2024 yildagi 196-sonli xati.
- Xonalar joylashtirish rejasi buyurtmachi bilan kelishilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi:

- Tasdiqlangan topotasvir chizmasi – taqdim etildi.
- Loyixa topshirig‘iga asosan loyihaviy bino raqamlari bo‘yicha o‘zgartirish –kiritildi.
- Loyixa topshirig‘ida 1 va 2-chi bosqichda bajariladigan ish turlari – ko‘rsatildi.
- Bosh rejada 1-bosqich texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar – ko‘rsatildi.
- Bosh reja binolar va inshootlar qaydnomasida turar-joy binolarining quvvati – ko‘rsatildi.
- ShNQ 2.07.01-23 ning talabida noturar va turar-joy uchun hamda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun avtoturargohlar o‘rni – ajratildi.
- ShNK 2.07.01-23 ning talab me’yorida bolalar o‘yin maydoni, kattalar uchun alohida ayvon bo‘lishi – ta’minlandi.
- ShNK 2.07.01-23 ning 407 va 408 bandi talabida asosan velosiped turargohi – ko‘zda tutildi.
- Bolalar o‘yin maydoni qoplamasi chizmasi – ishlab chiqildi.
- Beton yo‘llar o‘lchamini ko‘rsatildi, deformatsiya choklari chizmasi – ishlab chiqildi.
- ShNQ 2.07.02-22 talablari bo‘yicha nogironlar avtoturargohidan binoga yo‘naltiruvchi va ogohlantiruvchi taktil qoplamalar – loyixalandi.
- Qurilishni tashkil etish loyihasi – ishlab chiqildi.
- ShNQ 1.03.03-23 ga asosan qayta rasmiylashtirilgan loyiha topshirig‘i – taqdim etildi.
- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2.10.2024 yildagi 14-06/10342-sonli xatiga asosan loyihada zilzilabardoshlikka doir instrumental-texnik tekshiruvdan o‘tkazish bo‘yicha talablar – aks ettirildi.
- Loyihalarda xonadon umumiy quvvati – ko‘rsatildi.

“B” tip turar-joy binosi (AR-bo‘limi).

- Devor rejasida yondosh binolar bilan koordinata o‘qi asosida masofa o‘lchamlari – ko‘rsatildi.
- ShNQ 2.07.02-22 41-bandiga asosan nogironligi bo‘lgan shaxslarni yerto‘la va 1- qavatdagi savdo markaziga erkin kirib chiqishi uchun qulaylik – yaratildi.
- ShNQ 2.07.02-22 ning 77-bandiga asosan savdo zalida nogironlar uchun xojatxona (maxsus kabina) - ko‘zda tutildi.
- ShNQ 2.07.02-22 ning 7-bandiga asosan savdo zallarida, kirish joylarida, zina oldida ogohlantiruvchi va yo‘naltiruvchi taktil qoplamalar - ko‘zda tutildi.
- Savdo zaliga ShNQ 2.08.02-23 ning 165-bandiga asosan asosiy kirish joylarida tambur - ko‘zda tutildi.
- 2-qavat rejada “A” tipli xonadon – ajratildi.
- ShNQ 2.08.01-24 ning 205-bandiga asosan xonalar uchun berilgan to‘liq oynali derazalar ichki tarafdan – himoyalandi.
- Loyihada bino 4 tomon ko‘rinish chizmasi – ishlandi.
- Tashqi pardozlash material xisob jadvaliga issiqlik ximoya qatlami miqdori – kiritildi.
- Yerto‘la pol ostiga issiqlik himoya qatlami – ko‘zda tutildi.
- Yerto‘la devori tashqi tomondan to‘liq issiqlik himoya qatlami bilan – himoyalandi.
- GOST 21.501-2018 ga asosan qirqimlarda tom qatlamlari – ko‘rsatildi.
- Eshiklar “porog”siz bo‘lishi to‘g‘risida eslatmalar – berildi.

- ShNQ 2.08.01-24 ning 226-229-banlari asosan lift shaxtasi ichki o‘lchamlari – ko‘rsatildi.

“B” tip turar-joy binosi (KJ-bo‘limi).

- Umumiy ma’lumotlar varag‘i – o‘zgartirildi.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.04.2024 yildagi PQ-161-sonli qaroriga asosan loyiha hujjatlarida zilzila bardoshlikka doir vibrodinamik uskuna yordamida tekshiruvdan o‘tkazish – aks ettirildi.
- ShNQ 2.01.03-19 ning 3.1.1 bandiga asosan 6 metrdan yuqori farqli binoda seysmiy chok – ko‘zda tutildi.
- ShNQ 2.08.01-24 ning 194-195-198-band talabiga asosan pentxaus – olib tashlandi, bino balandligi – kamaytirildi.
- ShNQ 2.08.01-24 ning 228-band talabiga asosan bino balandligi – kamaytirildi.
- Poydevor rejasida yondosh binolar bilan koordinata o‘qi asosida masofa o‘lchamlari – ko‘rsatildi.
- 15-varag‘da 500x500mm o‘lchamli “K-2” ustun o‘rni – ko‘rsatildi.
- 26-varag‘da “3-3”, “4-4” kesimlar o‘rni – ko‘rsatildi.
- Devorlar yoyilmasi chizmasi tugunlarida devor kengligi – ko‘rsatildi.
- QMQ 2.01.03-19 ning 3.2.5-bandiga asosan devorlar yoyilmasi chizmasida to‘ldiruvchilar va yuk ko‘taruvchi elementlar orasi 20 mm tirqish qoldirish bo‘yicha tugunlar – ishlandi.
- QMQ 2.01.03-19 ga asosan 50÷54-varaqlarda pardadevorlar asosiy konstruksiyaga maxkamlash o‘rni, bog‘lamlar masofa o‘lchamlari – ko‘rsatildi.
- QMQ 2.01.03-19 ning 3.1.10 bandiga asosan diafragma bor joylarda plitalarni tayanish yechimi bo‘yicha tugunlar – ishlandi.
- ShNQ 2.01.02-04 ga asosan tom yopma rejasida tomga chiqish joyi – ko‘rsatildi.
- Tomyopma rejasida zina katagi o‘rni temir-beton plitalar bilan – yopildi.
- ShNQ 2.01.02-04 ga asosan balkon tutqichlari chizmasi – ishlandi.

“F” tip turar-joy binosi (AR-bo‘limi).

- Loyihada xonadon umumiy soni – ko‘rsatildi.
- Rejada yondosh binolar bilan koordinata o‘qi asosida masofa o‘lchamlari – berildi.
- Yuqori qavat rejalarida “D” koordinata o‘qi – ko‘rsatildi.
- ShNQ 2.08.01-24 ning 205-bandiga asosan xonalar uchun berilgan to‘liq oynali derazalar ichki tarafdan – himoyalandi.
- Yerto‘la pol osti issiqlik ximoya qatlami – ko‘zda tutildi.
- GOST 21.501-2018 ga asosan qirqimlarda tom qatlamlari – ko‘rsatildi.
- Eshiklar “porog”siz bo‘lishi to‘g‘risida eslatmalar – berildi.
- ShNQ 2.08.01-24 ning 226-229-banlari asosan lift shaxtasi ichki o‘lchamlari – ko‘rsatildi.
- Zina katagi chizmalari – qayta ishlandi.

“F” tip turar-joy binosi (KJ-bo‘limi).

- Yondosh binolar bo‘yicha umumiy bitta kotlovan rejasi – ishlandi.
- Kotlovan qirqimlari o‘zgarmas ±0.000 sathi bilan – bog‘landi.
- QMQ 2.01.03-19 ga asosan poydevorlar bir xil sathda – joylashtirildi.
- Poydevorlar seysmik choklaridan olingan tugunlar – ishlandi.
- Poydevordagi “Vk-4” tuguni – ishlandi.
- ShNQ 2.08.01-24 ning 194-195-198-band talablariga asosan bino balandlgi kamaytirildi, pentxaus – olib tashlandi.
- ShNQ 2.08.01-24 ning 228-band talabiga asosan bino balandligi kamaytirildi.
- Poydevor va seysmik kuchlar hisobi – ishlandi.

- Ora va tomyopma rejalarida balkon yaxlit quyma uchastkalari – ishlandi.
- Diafragma o‘tkazilgan kesishma joylardan olingan tugunlar – ishlandi.
- QMQ 2.01.03-19 ning 3.2.5-bandiga asosan to‘ldiruvchilar va yuk ko‘taruvchi elementlar bo‘yicha tugunlar – ishlandi.
- QMQ 2.01.03-19 ga asosan pardadevorlar asosiy konstruksiyaga mahkamlash tugunlari – ishlandi.
- QMQ 2.01.03-19 ning 3.1.10 bandiga asosan diafragma bor joylarda plitalarni tayanish o‘lchami – ko‘rsatildi.
- ShNQ 2.01.02-04 ga asosan tom yopma rejasida zina katagi – yopildi.

“H” tip turar-joy binosi (AR-bo‘limi).

- ShNQ 1.03.03-23 ga asosan umumiy ma’lumotlar varag‘i alohida “Energiya samaradorlik” bo‘limi – ishlandi.
- Loyihada xonadon umumiy quvvati – ko‘rsatildi.
- Rejalarda “1K-2” va “1K-3” xonadonlar kirish eshiklari o‘rni – o‘zgartirildi.
- Yerto‘laga tushish zinalari chizmalari – ishlandi.
- Pol ostiga issiqlik himoya qatlami – ko‘zda tutildi.
- GOST 21.501-2018 ga asosan qirqimlarda tom qatlamlari – ko‘rsatildi.
- ShNQ 2.08.01-24 ning 226-229-banlariga asosan lift shaxtasi o‘lchamlari – o‘zgartirildi.

“H” tip turar-joy binosi (KJ-bo‘limi).

- Umumiy ma’lumotlar varag‘i – o‘zgartirildi.
- ShNQ 2.01.03-19 ning 3.1.1 bandiga asosan bir bo‘ylama bino balandligi ortiqligi uchun seysmik chok – ko‘zda tutildi.
- ShNQ 2.08.01-24 ning 194-195-198-band talablariga asosan bino balandligi kamaytirildi va pentxaus – olib tashlandi.
- ShNQ 2.08.01-24 ning 228-band talablariga asosan bino balandligi kamaytirildi.
- Kotlovan qirqimlari o‘zgarmas ±0.000 sathi bilan – bog‘landi.
- Geologiyaga asosan poydevor ostini mustahkamlash yechimlari – berildi.
- Poydevor chuqurligi KJ va AR bo‘limida bir xilga – keltirildi.
- 1-qavat beton ustunlar o‘lchamini 50x50sm.ga – keltirildi.
- QMQ 2.01.03-19 ning 3.1.10 bandiga asosan diafragma bor joylarda plitalarni tayanish o‘lchami – ko‘rsatildi.
- QMQ 2.01.03-19 ning 3.2.5-bandiga asosan to‘ldiruvchilar va yuk ko‘taruvchi elementlar bo‘yicha tugunlar – ishlandi.
- 45-46-47-varaqlaridagi rejada pardadevor bog‘lamlari masofa o‘lchamlari – ko‘rsatildi.
- Balkon yaxlit quyma uchastkalar chizmasi – ishlandi.

Muhandislik ta’minoti.

Kuchsiz tok.

- ”H” tipdagi turar-joy binosi videodomofon tizimi bilan – jihozlandi.

Ichimlik va oqavasuv ta’minoti.

“F” va “B” tipdagi turar-joy binolari.

- Yerto‘ladagi jamoatchilik honalari ShNQ2.08.01-19 “Turar-joy binolariga o‘zgartirish” 6.2-bandga asosan avtomatik o‘t o‘chirish tizimi bilan – jihozlandi.
- VK-1 umumiy qismda T3 issiq suv sarfi – ko‘rsatildi.
- ShNQ2.08.01-19ning 9.25-bandiga muvofiq kanalizatsiya stoyaklari so‘rib oluvchi qismi bino tom yopmasidan – chiqarildi, VK-11 aksonometrik chizmada – aks ettirildi.

- VK-2 varaqda ko‘rsatilgan yong‘inga qarshi nasoslar quvvati QMQ2.04.01-98ning 6.1-bandiga muvofiq – to‘g‘rilandi.

- Yong‘inga qarshi kranlar V2 jihoz va uskunalar jadvali – taqdim etildi.

- Quyoshli issiq suv kollektorlarini mahkamlash tuguni – taqdim etildi.

“H” tipdagi turar-joy binosi.

- Yerto‘ladagi jamoatchilik xonalari texnik xonalarga – o‘zgartirildi.

- Bino qavatlar ichki yong‘inga qarshi suv ta’minoti tizimi bilan – jihozlandi.

- QMQ2.04.01-98ning 17.16-bandiga muvofiq gorizontal yig‘ma novlar – qayta ishlandi.

- Ichki issiq suv ta’minoti loyiha yechimi to‘liq – ishlab chiqildi.

- VK-1 umumiy qismlarda T3 issiq suv sarfi – ko‘rsatildi hamda quyosh suv isitgich qurilmalari soni – ko‘paytirildi.

- Quyoshli issiq suv kollektorlarini mahkamlash tuguni – taqdim etildi.

Isitish va shamollatish.

- Binolarning energopasporti – taqdim etildi.
- Issiqlik himoyalashning ikkinchi darajasi bo‘yicha hisobi – taqdim etildi.

“H” tipdagi turar-joy binosi.

- Bino uchun ichki isitish tizimi ishchi loyihasi – ishlab chiqildi.
- sokol qavati va 1-qavatlar uchun tabiiy shamollatish loyiha yechimi – berildi.
- QMQ 2.08.01-24 ning 200-201 bandilariga muvofiq lift shaxtasi uchun tashqi havo va tutunni haydash uchun shamollatish loyiha yechimi – berildi.
- Shamollatish tizimi bo‘yicha yig‘ma kanallar ShNQ 2.08.01-24 ning 295 bandi bo‘yicha – bajarildi.
- sokol va 1-qavatlar shamollatish tizimi ShNQ 2.08.01-24 ning 298 bandi bo‘yicha loyiha yechimi – berildi.

“F” tipdagi turar-joy binosi.

- ShNQ 2.04.07-22 ning 12-bob 200 bandiga muvofiq issiqlik punktlari qurilmasi (uzel vvoda) uchun suvlarini chiqarib tashlash loyiha yechimi – berildi.

QMQ 2.08.01-24 ning 200-201 bandilariga muvofiq lift shaxtasi uchun tashqi havo va tutunni haydash uchun shamollatish loyiha yechimi – berildi.

- Shamollatish tizimi bo‘yicha ShNQ 2.08.01-24 ning 295 bandi muvofiq tortuv quvurlariga yig‘ma kanallar – berildi.

“B” tipdagi turar-joy binosi.

- QMQ 2.08.01-24 ning 200-201 bandilariga muvofiq lift shaxtasi uchun tashqi havo va tutunni haydash uchun shamollatish loyiha yechimi – berildi.
- Shamollatish tizimi bo‘yicha ShNQ 2.08.01-24 ning 295 bandi muvofiq tortuv quvurlariga yig‘ma kanallar – berildi.
- Ichki isitish tizimi aksonometrik sxemasi – qayta ishlandi.

Elektr qismi.

“B” tip,“F” tip.

- Evakuatsiya va avariyali yoritish tizimi – ishlab chiqildi.

- Shitlarning hisobiy sxemalari – qayta ishlandi.

- Binodagi 3 fazali hisoblagichlar soni – o‘zgartirildi.

- Quyosh panellari orqali olinadigan energiya miqdorini hisoblash – ko‘zda tutildi.

- Quyosh panellarini chaqmoqdan himoya qilish – ko‘zda tutildi.

- Kuchli zilzila paytida elektr ta’minotini avtomatik uzish uchun loyihada DSD-080 paneli o‘rnatish – ko‘zda tutildi.

“H” tip.

- Quyosh panellarini chaqmoqdan himoya qilish – ko‘zda tutildi.

- Magistral tarmoqlar chizmalari – ishlab chiqildi.

- Kuchli zilzila paytida elektr ta’minotini avtomatik uzish uchun loyihada DSD-080 paneli o‘rnatish – ko‘zda tutildi.

6.2. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.3. Loyiha tashkilotlari loyihalarni buyurtmachiga topshirishdan avval loyihani barcha nusxalarida ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni to‘liq bartaraf etishi shart.

6.4. Ekspertizadan o‘tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to‘liqligi, ma’lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda “Namangan viloyati Namangan shahar Davlatobod tumani Yelxon MFY Islom Karimov ko‘chasi 185-uy hududida “SAMO BUILD-14” MCHJ tomonidan Shaharsozlik norma va qoidalari asosida, loyihadan chetlashmaslik sharti bilan o‘z qizil chizig‘i hududida savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shaxobchalarini o‘z ichiga olgan ko‘p qavatli turar-joylar kompleksi bino-inshootlarini qurilish (1-bosqich)” ishchi loyihasi kelgusida ko‘rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Abdunazarov Nemadjon Abdurazakovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Tursunov Ilyosbek Yunusxonovich, Jalilov Shokirjon Zokirjonovich, Mirzayeva Muyassarxon Qodirjonovna, Tursunov Doniyor Ismonjanovich, Abdunazarov Nemadjon Abdurazakovich